

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA QO'LLANILAYOTGAN IBORALARNING AYRIM KAMCHILIKLARI

Sodiqjonova Yoqutxon

Talabasi O'zbekiston Jurnalistika Va Ommaviy

Kommunikatsiyalar Universiteti 4-Bosqich

Annotatsiya:

Ushbu bu maqola tilni rivojlantirish uchun nimaga e'tibor qaratish va ommaviy axborot vositalarida yo'l qo'yilayotgan ba'zi kamchiliklar haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Til, ibora, jurnalist, qonun.

Аннотация:

В этой статье описывается, на чем следует сосредоточиться для развития речи, а также некоторые подводные камни, о которых говорят средства массовой информации.

Ключевые слова: Язык, выражение, журналист, закон.

Annotation:

This article outlines what to focus on for language development and some of the pitfalls that are being made in the media.

Keywords: Language, expression, journalist, law.

Kirish qism:

Ozod Sharafiddinovning har bir maqolasini o'qish orqali uni qanchalik kuchli munaqqid ekanligini anglab boraveringiz sari yana ham uning ijodini, hayot yo'lini chuqurroq o'rgangiz kelaverak ekan. Hatto munaqqid foydalangan ayrim jumlar siz yozayotgan maqola yoki asarlaringizga sezilar sezolmas ko'chib boradi. Ozod Sharafiddinovning maqolalarini o'rganish davomida ba'zida unda Abdullah Qahhor usulini ba'zida esa Said Ahmad yoki G'ofur G'ulomning yo'nalishini



ko'rishingiz mumkin. Ammo yozuvchi ular ichida o'z uslubini yarata oldi. Gohida achchiq, kinoyali, gohida hazil, kulgi ostida o'quvchining e'tiborini qozondi. Yozuvchi yechim qidirgan mavzular yoxud uni kelkasiga qiyinchilik yukini osgan ayrim holatlar faqat unikigina emas, uning kuchli so'z ta'sirli tufayli endi uni o'qigan har bir mutolaachining dardiga aylandi. So'z shu qadar kuchli vositaki, qurol bilan egallay olmagan yerni, bir so'z bilan qo'lga kiritish mumkin. Faqat so'zni o'z joyida, aql bilan ishlata olish mahorati ham joiz.

Til to'g'risida urg'u berilayotgan bir paytda Ozod Sharafiddinovning yana bir ona tilimizga doir "Ona tilim - iftixorim, inja ganjinam,, nomli maqolasi eslab o'tmay bo'lmadi. Bu maqolada o'zbek tilimiz nafaqat qadimiy balki nafosatga boy tiligi, u qanday ma'noni eng nozik, inju qatlamlarigacha ifodalab bera oladigan, o'zining go'zalligi bilan kishi zavq-u shavq ulasha oladigan bahri dilini ochib, go'zallik tuyg'usini qondira oladigan til deya ta'riflaydi. Ammo shu bilan birga OAV orqali tilimizda ko'plab uslubiy va grammatik xatolar uchrab turayotganligiga tanqidiy fikrlar berilgan. Maqolada yana bir narsaga ahamiyat qaratish kerakki, o'zbek tilida tilshunoslikka oid kitoblar soni kamligi. Agar shu kabi kitoblar miqdorini ortishiga sababchi bo'ladigan yozuvchilarning tilshunoslikka bag'ishlangan materiallarni aholiga yetkazish orqali yuqorida aytib o'tirgan kamchiliklarga yechim topishimiz mumkin.

Asosiy qism: Har bir millat o'z tilini dunyo bo'ylab yuqori o'rinni egallashini, bu tilda so'zlovchilar sonining ko'payishini xohlaydi. Axir bir til ortida tarix, bugun, kelajak turibdi. Lekin tilning sof yetib kelishigacha o'tmishda ajdodlarimizning kattagina mehnati yotibdi. Ayniqsa, bunda shoir, yozuvchilarnimizning o'rni bo'lakcha. Shu o'rinda mutafakkir Alisher Navoiyni tilga olmay tilga olmay ilojimiz yo'q. Shoirning 525 yillik tavallud nisholanish jarayoni haqida qisqacha izoh bersam. Albatta Navoiyning tavalludi mustaqillik yillaridan avval ham keng miqiyoda o'tkazilgan. Lekin rus tilining ta'siri yuqori bo'lgani uchunmi, hatto, shoirga atalgan bu tadbir ham o'zbek tili turib, boshlovchidan tortiq barcha rus tilida nutq so'zladi. Juda qiziq, Alisher Navoiydek tlimizning rivoji uchun kurashgan shaxsning bir kechalik tavalludi uchun o'zbekcha nutq qilishning iloji yo'qmikan? Zalda hamma o'zbekning milliy g'ururi, yuksak kamolini ona tili oraqli namoyish qilinishi intizorli bilan kutsa-yu, ammo o'zga tilda bir so'z eshitsang. Lekin shukrki,



o'zbek tilimizni, Navoiy ijodini hurmat qiladigan bir shaxsning ona tilimizda so'zlagan nuqti zalni larzaga keltirdi. Bu sharqshunos olim, Sankt-peterburglik Navoiy she'rlarining tadqiqotchisi va tarjimoni Serger Nikolayevich Ivanov edi. Uning sof o'zbek tilida so'zlagan nutqi Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda, sho'ro zamonasida majlislardam quvilgan ona tilimiz loaqal bitta nutqda majlisga qaytgani uchunmi, buyuk bobomizning o'sha to'yi to'ydek bo'ldi. Ha, omma oldida minbarda turib, bir rusiy zamon inson tomonidan ona tilingning madh etilishi ko'ngilga rohat olib kirar ekan.

Ozod Sharafiddinovning shu kabi misollaridan so'ng, bir o'y tortdi meni. Hozir biz qanchalik ona tilimizni ardoqlayapmiz yoki uni qanchalik yaxshi bilamiz? Yurtimizda har yili bo'lib o'tadigan ona tili bayramida o'zbek tilini ko'klarga ko'taramiz. Ammo bayram o'tgandan keyinchi? Fikrimcha tilimizga bo'lga hurmat, e'tibor faqat bayramlarda emas, balki biz o'zbek tilida so'zlashib turgan har bir jarayonimizda bo'lishi lozim. Biz esa ba'zan bilgan va bilmagan holda nutqimizda rus, ingliz so'zlaridan ko'p foydalanamiz. So'zlarni tub ma'nosini anglamagan ravishda qo'llayveramiz. Eng achinarlisi OAV da jurnalist, muxbirlarimiz ibora yoxud xalq maqolalarini, bundan tashqari uslubiy tomondan so'zlarni nomuvofiq tarzda ishlatayotganliklariga ko'p marotaba amin bo'lyapmiz. Masalan, bir kuni televizorni yoqsam, "G'allasi bor uyning allasi bor,, degan maqol muxbir tomonidan ishlatildi. Ha, biroz esani qotiradigan jumla. Eng qizig'i, xalq orasida bunday maqolning bo'lishi mumkin emas. Sababi na ma'no, mantiq bor. Ikkinchidan g'allaning allaga nima dahli bor? Omborda g'alla bo'lsa alla ayrilmadi, bo'lmasa yo'qmi? Shu turdagi iboralarni to'qib, yana yetmaganidek xalq nomidan aytish, bu muallifning dunyoqarashi g'aribligidan dalolatdir. Qolaversa, bu ona tilimizga hurmatsizlik hamdir. Yana bir jumlagi e'tiboringizni qaratsam. "Oy desa og'zi, kun desa qulog'idan ko'rinadigan qizlar,, Bu "Qizlar davrasi,, ko'rsatuvida boshlovchi tomonidan aytilgan nutqdan. Siz bunda biroz g'alizlik sezdingizmi? Aslida "oy desa yuzü bor, kun desa ko'zi bor,, shaklida bo'lishi kerak emasmi? Ha, bu singari xalqqa ko'zgu bo'ladigan kasb egalari ona tilimizda xatoga yo'l qo'yayotganliklari qanchalik o'zini oqlaydi? Tilning vayron bo'lishi, millat qulashi degani axir. Shu darajaga kelib qolmasligimiz uchun ham yo'l harakatini boshqarib turadigan Davlat



avtomobil nazorati borligi kabi, tilimizni ham taftish etadigan Davlat tili nazorati joriy qilinishi kerak.

Xulosa:

Til bor ekan, aloqa vositasi, rivojlanish bor. Shunday ekan uni o'z o'rnida qo'llay bilishimiz maqsadga muvofiq. Agarda biz iste'mol qilib turgan biror so'zning mohiyatini tushunmas ekanmiz, u holda tilshunoslikka doir manbalarga yoki ajdodlarimizdan meros asarlarga ko'proq murojaat qilaylik. Sababi, ular shunday xazinaki, uning boyliklaridan foydalanish uchun qandaydir mashaqqat chekish, katta kuch sarflab, mehnat qilish mol-u dunyo xarjlash talab qilinmaydi. Bor-yo'g'i qunt bilan, sabr bilan o'qish kerak xolos.

Foydalanishgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Ozod Sharafiddinov nomli kitob. Tanlangan asarlar. - T.: Sharq , 2019
- 2) <https://kh-davron.uz> "Millatning onasi,, nomli maqola
- 3) [https:// library.navoiy-uni.uz](https://library.navoiy-uni.uz) "O'zbek tili tarixi.